

# Maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari

Islom Ilxom o'g'li Axtamov  
Buxoro xalqaro universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarini tashkil etish, ularning mazmun-mohiyati, bolalar tarbiyasidagi o'rni hamda metodik yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Musiqa mashg'ulotlarining pedagogik-psixologik asoslari, yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda mashg'ulotlarni rejalashtirish, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda musiqaning roli yoritiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqaga nisbatan qiziqish kuchli bo'ladi, ular ritmga mos harakatlanadilar, qo'shiq kuylashga intiladilar. Shu sababli maktabgacha ta'limda musiqa mashg'ulotlarining tashkil etilishi va sifati bolalarning har tomonlama rivojida muhim o'rin tutadi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, estetik tarbiya, emotsiyonal rivojlanish, metodika, ijodkorlik, musiqa madaniyati, o'yin texnologiyalari, musiqiy ta'lim

## Specific features of organizing music lessons in preschool education

Islam Ilkhom oglu Akhtamov  
Bukhara International University

**Abstract:** This article discusses the organization of music lessons in preschool educational institutions, their content, role in child education, and methodological approaches. The pedagogical and psychological foundations of music lessons, planning lessons taking into account age characteristics, and the role of music in developing creative activity are highlighted. Preschool children have a strong interest in music, they move in rhythm, and strive to sing. Therefore, the organization and quality of music lessons in preschool education play an important role in the comprehensive development of children. Music not only forms the aesthetic taste of a child, but also serves his speech, emotional, mental, and physical development.

**Keywords:** preschool education, aesthetic education, emotional development, methodology, creativity, musical culture, game technologies, musical education

Bolalik - inson hayotidagi eng nozik, lekin ayni paytda eng muhim bosqichdir. Aynan shu davrda bola dunyoni o'z qalbi bilan anglay boshlaydi, go'zallikni his qiladi,

musiqani eshitib hayajonlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda musiqaga nisbatan qiziqish kuchli bo‘ladi, ular ritmga mos harakatlanadilar, qo‘sinq kuylashga intiladilar. Shu sababli maktabgacha ta’limda musiqa mashg‘ulotlarining tashkil etilishi va sifati bolalarning har tomonlama rivojida muhim o‘rin tutadi. Musiqa bolaning nafaqat estetik didini shakllantiradi, balki uning nutqiy, emotsiyal, aqliy va jismoniy rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimida estetik tarbiyaning ajralmas bo‘lagi sifatida musiqa mashg‘ulotlariga alohida e’tibor qaratiladi. Mustaqillik yillarida bu borada ko‘plab o‘zgarishlar, metodik yangiliklar, ilg‘or tajribalar joriy qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qarorida “Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi lozim” deb belgilangan. Hamda ushbu qarorda bolalarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga alohida urg‘u berilgan (“Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish, erta yoshdan boshlab STEAM o‘qitish asoslarini joriy etish”).

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa - bu nafaqat estetik zavq manbai, balki ularning umumiy rivojlanishida muhim o‘rin tutuvchi vositadir. Bolaning musiqiy tarbiyasi uning nutqi, harakati, emotsiyal holati, eshitish va ijodiy qobiliyatining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayoni o‘ziga xos metodik yondashuv va pedagogik mahoratni talab qiladi.

Musiqa mashg‘ulotlarining assosiy maqsadi - bolalarda musiqaga bo‘lgan qiziqish, eshitish qobiliyati, ritmik his va ijodiy tafakkurni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, musiqiy faoliyat bolalarning emotsiyal-irodaviy sohasini boyitadi, ularda quvonch, zavq, hamjihatlik va madaniy xulq-atvor kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Mashg‘ulotlar orqali bolalar qo‘sinq aytish, musiqa asboblarida o‘ynash, ritmik harakatlar bajarish, oddiy raqs elementlarini o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda eng muhim jihatlardan biri - ularning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olishdir. Ular uchun musiqa, avvalo, o‘yin vositasidir. Shuning uchun mashg‘ulotlar qiziqarli, faol va interaktiv shaklda tashkil etilishi kerak. O‘yinlar, sahna ko‘rinishlari, hayvonlar yoki predmetlarning obrazlaridan foydalananilgan musiqiy topshiriqlar bolalarda musiqaga nisbatan ijobiy munosabat shakllantiradi.

Musiqa mashg‘ulotlarining assosiy turlari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

1. Qo'shiq aytish - bolalarning tovush apparatini rivojlantirish, to'g'ri nafas olish, ohangdorlikni his etish va talaffuzni to'g'rilashga xizmat qiladi.

2. Musiqiy eshitish - turli janrdagi asarlarni tinglash orqali bolalar musiqiy obrazlarni farqlashni, emotsiyalohangni anglashni o'rganadilar.

3. Ritmik harakatlar - musiqa bilan uyg'un holda bajariladigan harakatlar bolalarning koordinatsiyasini rivojlantiradi.

4. Musiqa asboblarida o'ynash - bu bolalarda eshitish-motorik muvofiqlikni, musiqiy tinglash va ijro etish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mashg'ulotlarda o'qituvchi musiqa orqali bolalarni do'stona muhitga jalg qiladi, ularni ruhlantiradi, erkin fikrlash va o'zini erkin ifoda etish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, musiqa vositasida bolalarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq kuy-qo'shiqlari orqali vatanparvarlik ruhini singdirish mumkin.

Musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishda bolalar psixologiyasi, ularning e'tiborini jamlash qobiliyati va yoshga mos yuklama darajasi inobatga olinadi. Har bir mashg'ulot 15-25 daqiqa davom etishi lozim, bu bolalarning charchamasligi va diqqatni ushlab turish imkonini beradi. Mashg'ulotlar mazmuni turlicha bo'lishi, musiqiy materiallar yangilanib borishi kerak. Ayniqsa, fasllarga oid, mavsumiy holatlarga mos qo'shiqlar va musiqiy hikoyalar bolalar uchun qiziqarliroq bo'ladi.

Zamonaviy mакtabgacha ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish musiqa mashg'ulotlarini yanada boyitadi. Audiovizual vositalar orqali turli cholg'u asboblari ovozlari, xalq kuy-qo'shiqlari, multfilm musiqalari va turli millatlar madaniyati bilan tanishtirish mumkin. Bu bolalarda keng dunyoqarash va madaniy ongning shakllanishiga xizmat qiladi.

Musiqa mashg'ulotlari mакtabgacha ta'lim muassasasining kundalik tarbiyaviy faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Bu mashg'ulotlar bolalarning emotsiyalohangosini boyitadi, ularni musiqiy obrazlar orqali o'ylash, his qilishga undaydi. Musiqa orqali bolaning ichki dunyosi, kechinmalari, his-tuyg'ulari rivojlanadi. Shu bois, musiqa mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun pedagog nafaqat musiqa bilimlariga, balki psixologik va pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lishi zarur.

Maktabgacha yoshdagagi bolalar faoliyatida o'yin asosiy o'rinni egallaydi. Shuning uchun musiqa mashg'ulotlari ham o'yin xarakterida, bolalarga qiziqarli bo'lgan shakllarda o'tkazilishi kerak. Bunday yondashuv ularning ishtiropini faollashtiradi, musiqaga bo'lgan muhabbatni oshiradi. Masalan, hayvonlar harakati, qushlarning uchishi, suvning shovqini kabi tasviriy obrazlar asosida musiqa tinglatish, bu orqali ritm va tembrni his qilishga o'rgatish mumkin.

Musiqa mashg'ulotlarining asosiy faoliyat turlariga quyidagilar kiradi: qo'shiq kuylash, musiqiy- ritmik harakatlar, musiqa tinglash, bolalar cholg'u asboblarida jo'r bo'lish, va musiqa savodi. Bu faoliyatlarning har biri bolalarning musiqa madaniyatini shakllantirishda o'ziga xos o'rin tutadi. Masalan, qo'shiq kuylash bolalarning nutqini,

tovushni to‘g‘ri chiqarish malakasini rivojlantirsa, ritmik harakatlar muvofiqlashtirish, tanani boshqarish qobiliyatlarini oshiradi. Musiqa tinglash esa eshitish, farqlash, obrazni tushunish qobiliyatlariga ta’sir qiladi.

Pedagog musiqa mashg‘ulotlarida yosh guruhiga mos yondashuvlarni tanlashi zarur. Kichik guruh bolalari uchun qisqa, ravon, takrorlanuvchi qo‘shiqlar, aniq harakatlarga asoslangan o‘yinlar mos bo‘lsa, katta guruh bolalari bilan murakkabroq musiqiy shakllar, ijodiy topshiriqlar ustida ishlash mumkin. Bu jarayonda bola o‘z fikrini bildirish, obraz yaratish, mustaqil harakat qilishga o‘rganadi.

Musiqa orqali milliy qadriyatlarni singdirish jarayoni ham alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha ta’limda o‘zbek xalq kuy-qo‘shiqlari, an’anaviy musiqa namunalaridan foydalanish orqali bolalarga vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg‘ularini hamda estetik didni shakllantirish mumkin.

Musiqa mashg‘ulotlarida turli didaktik vositalar, zamonaviy texnologiyalar, multimedya dasturlaridan foydalanish hozirgi kunning dolzarb pedagogik masalalaridan biri hisoblanadi. Audio va video materiallar, interaktiv topshiriqlar bolalar uchun musiqa bilan ishlashni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Shuningdek, ota-onalar bilan hamkorlikda musiqa faoliyatini tashkil etish bolalarning musiqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular ishtirokidagi bayram tadbirlari, konsertlar, ko‘rgazmalar orqali bola o‘zini namoyon etish, jamoa oldida chiqish qilish, sahna madaniyatini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Musiqa mashg‘ulotlarida bola shunchaki kuylamaydi yoki raqsga tushmaydi - u his qiladi, tinglaydi, tushunadi, ifoda etadi. Bu esa bola ongida estetik sezgi, emotsiyonal sezgirlik, go‘zallikka nisbatan ehtiyojni uyg‘otadi. Bu ehtiyoj esa kelgusida uning shaxsiyati shakllanishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy metodikalar orasida integratsiyalashgan mashg‘ulotlar ham alohida o‘rinni egallaydi. Musiqa boshqa fanlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda - rasm chizish, jismoniy tarbiya, ona tili, atrof-muhit bilan tanishtirish kabi yo‘nalishlar bilan birgalikda olib borilsa, bola musiqani hayotiy jarayonlar bilan bog‘lab tushuna boshlaydi. Bu esa uning umumiy bilim doirasini kengaytiradi, musiqaga nisbatan ongli yondashuvni shakllantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, maktabgacha ta’limda musiqa mashg‘ulotlarini tashkil etish - bu bolalar bilan yurakdan suhbatlashish, ularning his-tuyg‘ulariga qulqutish, musiqiy tarbiya orqali insoniy fazilatlarni singdirish demakdir. Musiqa bolalarni go‘zallikka oshno etadi, ijodiy fikrlashga undaydi. Pedagogning mahorati esa shu musiqiy jarayonni sevgi, ilhom va did bilan yo‘naltirishda namoyon bo‘ladi. Kelajakda jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun bola bolaligidan estetik tarbiya olishi, musiqaning sehrli olamida yashashni o‘rganishi zarur. Shu sababli musiqa mashg‘ulotlari maktabgacha ta’lim tizimining ajralmas, muhim, samarali bo‘g‘ini sifatida doimo e’tiborda bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’limda musiqa mashg‘ulotlari

nafaqat musiqiy tarbiya, balki umumiy shaxsiy rivojlanish uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Ular orqali bolalarda eshitish madaniyati, emotsional sezgirlik, ijodkorlik, o‘zini ifoda etish va estetik did kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bu esa ularning keyingi ta’lim bosqichlariga tayyorlanishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son.
2. Boltayev.B., Xodjayev.J.A., "Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa tarbiyasi". Darslik, "SamDu" nashriyoti, Samarqand-2022 y.
3. Sharipova. G., Xodjayeva. Z., "Musiqa o‘qitish metodikasi". Darslik. "NIF MSH" nashriyoti, Toshkent - 2020 yil.
4. I.I.Axtamov. Boshlang‘ich sinflarda musiqa o‘qitishning interfaol metodlaridan foydalanish. Tafakkur manzili. 2024/5/22
5. I.I.Axtamov. The role of classical music art in higher musical and pedagogical education. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) Vol. 4 No. 6 (2023): wos 2023-06-17
6. I.I.Axtamov. Organization of classes on listening to samples of the national makom in primary schools. Academia Science. In Volume 4, Issue 5 of Academicia Globe: Inderscience Research (AGIR) May 2023
7. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida musiqa savodxonligi faoliyatining o’rni. Journal of advanced research and stability. 22.12.2022
8. I.I.Axtamov. Musiqa madaniyati darslarida xalq musiqasining o’rni. Science and Education 3 (1) 2022-01-18
9. I.I.Axtamov. Introducing students to the art of makom through music culture lessons. eurasian journal of academic research. Volume 1 Issue 03. 2021-06-10
10. I.I.Axtamov. Maqom an’anaviy kasbiy musiqa namunalarini o‘rganishda ovoz xususiyatlari. Scientific progress. ISSN 2181-1601/ 2021/03 B.648-653.
11. К.Б.Холиков. Манера педагогической работы с детьми одарёнными возможностями. Science and Education 4 (7), 378-383
12. К.Б.Холиков. Роль теоретичности и применения информационных систем в области теории, гармонии и полифонии музыки. Scientific progress 2 (3), 1044-1051
13. К.Б.Холиков. Образовательное учреждение высшего профессионального образования в музыкальной отрасли Узбекистана. Scientific progress 2 (6), 946-951
14. К.Б.Холиков. Задачи хора для вырождающегося нагруженного управления косвенного, противоположного и параллельно-двигающегося голоса. Scientific progress 2 (3), 690-696

15. К.Б.Холиков. Магнитные свойства тяготение к человеку многоголосного произведения музыке. *Scientific progress* 2 (3), 728-733
16. К.Б.Холиков. Дифференцированное обучение студентов на занятиях гармонии и анализа музыкальных произведений. *Scientific progress* 2 (3), 1038-1043
17. К.Б.Холиков. Звуковысотная организация и последовательность частей формы музыки. *Scientific progress* 2 (4), 557-562
18. К.Б.Холиков. Свободой выбора исполнительского состава в эпоху ренессанса. *Scientific progress* 2 (4), 440-445
19. К.Б.Холиков. Этапы формирования и перспективы развития инфраструктуры хорового коллектива. *Scientific progress* 2 (3), 1019-1024
20. К.Б.Холиков. Полуимпровизационные формы профессиональной музыки. *Scientific progress* 2 (4), 446-451
21. К.Б.Холиков. Область применения фугированных форм. Тройные и четверные фуги. Фугетта и Фугато. *Scientific progress* 2 (1), 1052-1059
22. К.Б.Холиков. Проблематика построения современных систем мониторинга объектов музыкантов в сфере фортепиано. *Scientific progress* 2 (3), 1013-1018
23. К.Б.Холиков. Содержание урока музыки в общеобразовательном школе. *Scientific progress* 2 (3), 1052-1059
24. К.Б.Холиков. Представление результатов измерений системы контроля параметров дыхания в вокальной пении. *Scientific progress* 2 (3), 1006-1012
25. К.Б.Холиков. Гармония к упражнению голоса их роль в регуляции мышечной деятельности при вокальной музыки. *Scientific progress* 2 (3), 705-709
26. К.Б.Холиков. Область применения двойные фуги. *Scientific progress* 2 (3), 686-689
27. К.Б.Холиков. Музикально театральные драмы опера, оперетта. *Science and Education* 3 (2), 1240-1246
28. К.Б.Холиков. Фактуры, музыкальной формы, приводящие к структурной, драматургической и семантической многовариантности произведения. *Scientific progress* 1 (4), 955-960
29. К.Б.Холиков. Подбор состава хора и изучение музыкального материала в школьном возрасте 10-13 лет. *Scientific progress* 2 (3), 999-1005
30. К.Б.Холиков. О принципе аддитивности для построения музыкальных произведения. *Science and Education* 4 (7), 384-389